

Jamiyatda millatlararo bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirishning milliy asoslari

Shaxzoda Xudoyberdi-qizi Ortiqova
ortiqova_s_x@samdchti.uz
Samarqand davlat chet tillar instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatda millatlararo bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirishning falsafiy mohiyati ochib berilgan. Ijtimoiy-madaniy jihatdan millatlararo bag‘rikenglik madaniyatini jamiyatda rivojlantirish jarayonlarini o‘rganish, davlatlarning ijtimoiy-siyosiy sohasida bag‘rikenglik madaniyatini demokratiya jarayonlari bilan bog‘lash yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, urf-odatlar, axloq, miliy, qadriyat, dunyoqarash, bag‘rikenglik, madaniyat, ma’rifat, mentalitet, milliy qadriyat, tinchlik, barqarorlik, urf-odat, millat, elat, shart-sharoit, ong, kuch-qudrat, kamtarlik, sharmu hayo, or-nomus.

National fundamentals of developing a culture of international tolerance in society

Shakhzoda Ortiqova
ortiqova_s_x@samdchti.uz
Samarkand State Institute of Foreign Languages

Abstract: This article reveals the philosophical essence of developing a culture of interethnic tolerance in society. Socio-cultural study of the processes of development of a culture of interethnic tolerance in society, the connection of the culture of tolerance in the socio-political sphere of states with the processes of democracy.

Keywords: spirituality, customs, ethics, nationality, values, worldview, tolerance, culture, enlightenment, mentality, national values, peace, stability, tradition, nation, people, conditions, consciousness, power, humility, modesty, honor

Millatlararo madaniyat va bag‘rikenglik madaniyati murakkab ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Uning mazmuni hamda tarkibiy unsurlari asrlar, hatto ming yillar davomida shakllanib kelgan bo‘lib, bu jarayon hozirgi davrda ham davom etmoqda. Turli millat va xalqlarning madaniy tajribasida millatlararo madaniyat hamda bag‘rikenglik madaniyatining o‘ziga xos ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, ular ilmiy adabiyotlarda tobora yangicha talqin etilmoqda. Doimiy ravishda o‘zgarib borayotgan

dunyoda jamiyatning yashab qolish usuli sifatida namoyon bo'ladigan qadriyatlar, ijtimoiy manfaatlar va me'yorlar bilan bir qatorda millatlararo madaniyat hamda bag'rikenglik madaniyati shaxsning erkinligi va mas'uliyati, shuningdek, boshqa millat yoki boshqa xalq vakiliga bo'lgan munosabatning eng muhim mezonlaridan biri sifatida maydonga chiqadi. Shu jihatdan uning mazmuni va chegaralarini yanada aniqlashtirish zarurati tug'iladi. Har bir tarixiy davr insoniyat taraqqiyotining ma'lum bir bosqichi sifatida tavsiflanishi va izohlanishi mumkin. Ayni paytda millatlararo bag'rikenglik madaniyatining bir necha turlarini ajratish ilmiy an'anaga aylangan.

Mustaqillikdan keyingi ijtimoiy-ma'naviy islohotlar markazida barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi umummilliy va umumdavlat miqyosidagi ustuvor vazifaga aylandi. Mamlakatimiz istiqboli, erkin va farovon hayotni barpo etish masalasi, shuningdek, O'zbekistonning XXI asr jahon hamjamiyatidagi o'rni va nufuzi yoshlarning qanday inson sifatida shakllanishiga bevosita bog'liqdir. Yoshlar to'g'ri tarbiyalansa, ularning tafakkuri va ruhiy olamiga milliy hamda umumbashariy qadriyatlar chuqur singdirilsa, moddiy va ma'naviy ehtiyojlari o'z vaqtida va to'liq inobatga olinsa, davlatimiz va jamiyatimizning intellektual salohiyati yanada yuksaladi.

Insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida eng dolzarb masalalardan biri millatlararo va madaniyatlararo munosabatlar doirasidagi bag'rikenglik masalasi bo'lib kelgan. Haqiqatan ham aynan turli millatlar o'rtasidagi munosabatlarda ko'plab ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelgan va bugungi kunda ham kuzatilmoqda. Ijtimoiy-madaniy nuqtai nazardan jamiyatda millatlararo bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirish jarayonlarini o'rganayotgan ko'plab tadqiqotchilar bu holatni so'nggi bir necha asrlar davomida davlatlarning ijtimoiy-siyosiy hayotida demokratiya jarayonlarining kuchayishi bilan bog'laydilar. Boshqacha aytganda, demokratik tamoyillar qanchalik mustahkamlanib borsa, millatlararo bag'rikenglik madaniyatining rivojlanishi uchun shunchalik qulay imkoniyatlar vujudga keladi. Chunki Sharq mamlakatlarida qabul qilinadigan har qanday qonun va qonunosti hujjatlari milliy qadriyatlarimizga moslashtirilgan holda ishlab chiqiladi. Shu asosda aytish mumkinki, demokratiya insonlarni axloqiy va ma'naviy jihatdan sog'lom, bag'rikeng, bir-biriga ishonch bilan qaraydigan ijtimoiy subyektlarga aylantiradi. Shu bilan birga, demokratiya va unga hamroh bo'luvchi ijobiy qadriyatlar, asosan, madaniyatning muayyan taraqqiyot bosqichidan o'tgan iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarga xos ekanligi ham ayon bo'ladi. Demak, iqtisodiy taraqqiyot demokratiyani rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, demokratiya esa o'z navbatida bag'rikenglikning kuchayishiga xizmat qiladi.

Insoniyat tarixida eng dastlabki ijtimoiy birlik sifatida shakllangan oila mustahkam bo'lsa, bugungi murakkab va ko'p tarmoqli jamiyat ham barqaror bo'ladi. Jamiyatning mustahkamligi va insonparvarlik darajasi mamlakat hamda xalq tinchligi,

farovonligi va barqarorligining muhim ko'rsatkichidir. Aynan shunday ijtimoiy-siyosiy hamda axloqiy-ma'naviy muhit sog'lom turmush tarzining, yuksak ma'naviy madaniyat ravnaqining asosiy va obyektiv omiliga aylanadi.

Globalashuv jarayonida insoniyat hamjamiyati oldida paydo bo'layotgan ko'plab muammolar ichida tolerantlik madaniyati alohida o'rin egallaydi. XX asr insoniyatga katta ijobiy ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlarni, jumladan, mustaqil davlatlar sonining ortishi, jamiyatning demokratlashuvi, erkin fuqarolik jamiyatining shakllanishi va xalqaro munosabatlarning integratsiyalashuvini meros qilib qoldirdi. Shu bilan birga, hal qilinishi zarur bo'lgan murakkab ijtimoiy va xalqaro ziddiyatlar, milliy biqqlik, buyukdavlatchilik shovinizmi, diniy ekstremizm va fundamentalizm kabi salbiy holatlar ham saqlanib qoldi. Bularning barchasi tolerantlik madaniyatini umumbashariy qadriyat darajasiga ko'tarish qanchalik muhim ekanini ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, bag'rikenglik millatlararo munosabatlar rivoji bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u ijtimoiy bag'rikenglikni rivojlantirishga xizmat qiladi, millatlararo madaniyat esa, aksincha, millatlararo bag'rikenglik madaniyatining mustahkamlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Bizning nazarimizda, ushbu fikrlarning asoslanganligini ijtimoiy voqeligimizning o'zidan ham ko'rish mumkin. Har kuni mamlakatimizda millatlararo va diniy bag'rikenglik asosida jamiyatimizda tinchlik hukm surayotgani haqida turli axborot vositalari orqali ma'lumot olamiz. Hozirgi sharoitda dinlararo bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirish masalalari nihoyatda dolzarbdir. Biroq bu holat jamiyatda demokratiya yoki bag'rikenglik madaniyati mavjud emas, degan xulosani anglatmaydi. Bizning fikrimizcha, insonlar hali ham bir-biridan har qanday farqni to'liq qabul qilish darajasiga yetib bormagan. Bag'rikenglik madaniyatining rivojlanish tarixi, xuddi insoniyat tarixi singari, faqat ikki bosqich bilan cheklanmaydi. Taraqqiyot uzluksiz davom etadi va jamiyat oxir-oqibat millatlararo bag'rikenglik madaniyatini tor ma'nodagi alohida ko'rinishlar yig'indisi sifatida emas, balki inson hayotining barcha sohalarini qamrab oladigan yaxlit tushuncha sifatida anglay boshlaydi. Bag'rikenglik madaniyati umummadaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, o'ziga xos xususiyatlarga ega. U tolerantlik tushunchasi bilan mazmunan hamohang qo'llaniladi. Turli tadqiqotchilar o'z ilmiy sohasi va tadqiqot obyektining mohiyatidan kelib chiqib, ushbu tushunchaga turlicha yondashuvlarni ilgari surganlar. Jumladan, bag'rikenglik "Falsafa: qisqacha izohli lug'at"da "tolerantlik (lotincha tolerantia – chidam) – o'zgarlar turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan chidamlilik, bag'rikenglik" tarzida ta'riflangan.

"Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar" nomli qisqacha izohli tajribaviy lug'atda esa bevosita bag'rikenglik emas, diniy bag'rikenglik tushunchasiga izoh berilgan bo'lib, unda "Diniy bag'rikenglik (tolerantlik) – turli diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va

hamjihat bo'lib yashashi, jamiyat ravnaqi yo'lida xizmat qilishi" sifatida talqin qilinadi. Hozirgi davrda bu g'oya nafaqat dindorlar, balki jamiyatning barcha a'zolarining ezgulik yo'lida hamkorligini nazarda tutadi. Mazkur yondashuvda olijanob g'oyalar atrofida birlashish masalasi ustuvor o'rin tutadi. Biroq shaxsning boshqa din vakili e'tiqodiga nisbatan individual hurmati va chidamliligi masalasi to'liq ochib berilmagan.

Tadqiqotchi Z.Xusniddinov tolerantlikni lotincha "tolerare" - "chidamoq" ma'nosidan kelib chiqib, umumiy mazmunda biror narsa, hodisa, o'zgacha fikr yoki qarashni shaxsiy tushunchalardan qat'i nazar imkon qadar sabr-toqat bilan qabul qilish deb izohlaydi. Uning fikricha, diniy bag'rikenglik vijdon erkinligi nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega bo'lib, boshqa shaxsning diniy e'tiqodiga, boshqa dinga va uning vakillariga hurmat bilan yondashishni, turli din va konfessiya vakillari aqidalaridagi farqlarga qaramay, ularning yonma-yon va tinch-totuv yashashini anglatadi. Shuningdek, milliy ongda tolerantlik masalalarini tadqiq qilgan f.f.d. M.Hojiyeva tolerantlikni ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan ongning tabiiy-ijtimoiy mahsuli, unda shakllanadigan ma'naviy-ruhiy boylik, subyektlar hayotiy faoliyatining obyektiv ehtiyoji va umuminsoniy qadriyat sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, tolerantlik falsafiy kategoriya sifatida subyektlararo ehtiyoj va manfaatlardagi munosabatlarni muvozanatlashtiruvchi dunyoqarash, g'oya, mafkura va amaliyotning in'ikosidir. Bu yondashuv tolerantlikning ong bilan uzviy bog'liqligiga alohida urg'u beradi.

Ayrim tadqiqotchilar bag'rikenglikni subyektning faoliyati, aniqrog'i, madaniyati bilan bog'laydilar. Jumladan, E.Karimova tolerantlikni odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, uning shaxs sifatidagi erkinligi hamda huquqlarini ta'minlash kabi g'oyalar bilan sug'orilgan diniy, falsafiy, huquqiy, axloqiy va boshqa insonparvar qarashlar tizimining asosi sifatida baholaydi.

Bizning nuqtai nazarimizga ko'ra, insonning har qanday xatti-harakati, shubhasiz, uning ongi bilan bog'liq. Biroq inson muayyan bilimga ega bo'lishi mumkin, ammo uni amalda qo'llamasligi ham ehtimoldan xoli emas. Shu bois falsafiy nuqtai nazardan huquqiy ong va huquqiy madaniyat, estetik ong va estetik madaniyat, axloqiy ong va axloqiy madaniyat singari bag'rikenglik ongi va bag'rikenglik madaniyatini ham farqlash mumkin. Ularning asosiy tafovuti shundaki, bag'rikenglik ongida subyektning tegishli bilimlarga egaligi ifodalansa, bag'rikenglik madaniyatida ayni shu bilimlarning amaliyotda namoyon bo'lishi tushuniladi. Shu ma'noda, bag'rikenglik madaniyati ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, natijaviylikni ifodalaydi. Faqat bag'rikenglik ongi mavjud bo'lishining o'zi yetarli emas; agar u amaliy xulq-atvorda ro'yobga chiqmasa, bag'rikenglik madaniyati shakllanmaydi. Demak, biri poydevor bo'lsa, ikkinchisi uning amaliy ustqurmasi hisoblanadi.

Bugungi globallashuv sharoitida bag'rikenglik madaniyati shakllanmagan jamiyatda jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuv jarayoni to'laqonli rivojlanmaydi. Bundan tashqari, jamiyat ichida ham har bir shaxsda bag'rikenglik madaniyati yuqori bo'lsa, kishilar o'rtasida ahillik, jamiyatda barqarorlik va davlatda tartib mustahkamlanadi. Jamiyat taraqqiyoti va adolat ustuvorligi ham fuqarolarning bag'rikenglik darajasiga bevosita bog'liqdir.

Shu nuqtai nazardan, "2017-2021 yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi"da ham mazkur masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Jamiyat taraqqiyoti va uning istiqbolida yoshlarning o'rni barcha davrlarda hal qiluvchi omil sifatida e'tirof etib kelinadi. Shuning uchun ham yoshlar madaniyatini, xususan, ularning bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois bag'rikenglik madaniyatining mohiyatini, uning nazariy va metodologik asoslarini o'rganish zarur. Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, ushbu bobda bag'rikenglik madaniyatining mohiyati, uning axloq bilan uyg'unlashuv tendensiyalari, yoshlar bag'rikenglik madaniyatining milliy va umuminsoniy negizlari, yoshlar orasida bag'rikenglik madaniyatini yuksaltirishning institutsional tizimi hamda asosiy tamoyillari tadqiq etiladi.

O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining tamal toshi "vijdon erkinligi" tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Fuqaroviy erkinliklar ichida insonning ichki ma'naviy olami va ruhiyati bilan bevosita aloqador bo'lgan vijdon erkinligi demokratik mamlakatlarda umume'tirof etilgan eng asosiy inson huquqlaridan biridir. Muayyan insonning qadr-qimmatini, odamlar o'rtasidagi mehr-oqibat, samimiylik, axloqiy poklik, insof, adolat va insonparvarlik kabi ezgu umuminsoniy qadriyatlar fuqarolik jamiyati hayotining haqiqiy mezonlari hisoblanadi. O'zbekistonda davlat va jamiyat qurilishi jarayonida tom ma'nodagi vijdon erkinligini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi", deb belgilangan. Shuningdek, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining yangi tahririda ham vijdon erkinligi fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilish yoki e'tiqod qilmaslikdan iborat konstitutsiyaviy huquqi sifatida mustahkamlangan. Shu ma'noda, huquqiy kategoriya sifatida vijdon erkinligi bir tomondan e'tiqod erkinligini, ikkinchi tomondan esa hech bir dinga e'tiqod qilmaslik huquqini ifoda etadi. Ushbu konstitutsiyaviy huquqning amalda ro'yobga chiqarilishi fuqarolik jamiyatining ma'naviy-madaniy rivojlanganlik darajasining muhim ko'rsatkichidir.

Bag'rikenglik madaniyati ko'p millatli jamiyat hayotida millatlararo va konfessiyalararo bag'rikenglik tamoyillarining faol rivojlanishi va samarali amal

qilishini anglatadi. Zamonaviy globallashuv sharoitida bag'rikenglik madaniyati ko'p jihatdan modernizatsiya jarayonlari bilan bog'liq holda namoyon bo'lmoqda. Ya'ni bu fanatizmdan voz kechib, konstruktiv muloqotni qaror toptirishga qaratilgan ijobiy rivojlanish dinamikasidir. Modernizatsiya mahsuli bo'lgan muloqotga asoslangan bag'rikenglik madaniyatining zamonaviy modeli ko'p millatli va ko'p dinli jamiyatning jadal ijtimoiy-madaniy rivojlanishi uchun eng samarali shakl ekanini jahon tajribasi tasdiqlaydi.

Shuningdek, "Tinchlik va bag'rikenglik" atamaları izohli lug'atida bag'rikenglik "jamiyatdagi turfa madaniyatlik, plyuralizm, turli-tumanlik va xilma-xilliklarning mavjudligini tan olish, qabul qilish, to'g'ri tushunish va hurmat qilishga qaratilgan ijobiy munosabat", shuningdek, "sabrlilik, qanoatlilik, toqatlilik, bardamlilik, chidamlilik" sifatida talqin etiladi.

Fikrimizcha, bu borada quyidagi vazifalarni birlamchi deb hisoblash lozim. Birinchidan, tarbiyaviy ishlar samaradorligining muhim sharti sifatida sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish zarur. Ikkinchidan, mustaqillik g'oyalarining mazmun-mohiyati va maqsad-muddaolarini yoshlar ongiga chuqur singdirish orqali bizning turmush tarzimizga, qadriyatlarimizga, milliyligimiz va diniy e'tiqodimizga mutlaqo zid bo'lgan yot va buzg'unchi g'oyalarning zararli ta'siri haqida to'laqonli tasavvur hosil qilishga erishish lozim. Uchinchidan, o'tmishdagi madaniy-tarixiy merosimizni chuqur o'rganish orqali milliy g'urur va iftixor tuyg'usini tarbiyalash muhimdir. To'rtinchidan, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida o'z qobiliyati hamda mahoratini namoyon etish uchun sharoit yaratish zarur. Xususan, insonning ma'naviy kamoloti va bag'rikenglikning uyg'un jihatlari, bag'rikenglik madaniyatining shakllanish tendensiyalari, uning umuminsoniy qadriyat sifatida yoshlar faoliyatida namoyon bo'lishiga oid tadqiqotlar katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, aholi, ayniqsa yoshlarni tarbiyalashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, yoshlarning bag'rikenglik madaniyati mezonlari, me'yorlari va tamoyillarini aniqlash, ushbu muammoni axloqiy tamoyillar bilan uyg'un holda tizimli ravishda ilmiy-amaliy tadqiq etish obyektiv zarurat bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yurtimizda yoshlar orasida bag'rikenglik madaniyatini shakllantirishning tashkiliy asoslari yaratib bo'lingan va bu yo'nalishda davlat tomonidan izchil siyosat olib borilmoqda. Shu bilan birga, bugungi kunda quyidagi vazifalar ustuvor ahamiyat kasb etadi: mustaqil dunyoqarashni, tafakkur erkinligini va sog'lom fikrni qaror toptirishni tarbiyaviy faoliyatning muhim yo'nalishi sifatida belgilash; yoshlarning turli zararli g'oyalarga qarshi tura olish qobiliyatini rivojlantirishni esa asosiy maqsad darajasiga ko'tarish. Aynan ana shunday yondashuv yoshlar ongida bag'rikenglik madaniyatini mustahkamlash, jamiyatda barqarorlik va

hamjihatlikni ta'minlash hamda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining ma'naviy asoslarini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kholikov Y. O. Ethical foundations for the development of a culture of tolerance in youth. *Philosophical Readings XIII*. 4, 112-117 [Электронный ресурс].
2. Kholikov Y. O. Issues of education of youth on the ethical basis of international culture and tolerance at the age of globalization // *Philosophical Readings*. – 2021. – Т. 13. – №. 4. – С. 1917-1922.
3. Kholikov Y. O. Moral aspects of national ethnic in bringing up young generation with generosity // *Theoretical & Applied Science*. – 2019. – №. 7. – С. 18-21.
4. Kholikov Y. O. Philosophical Fundamentals Of The Culture Of Tolerance // *The American Journal of Social Science and Education Innovations*. – 2021. – Т. 3. – №. 09. – С. 48-51.
5. Kholikov Y. O. The education of young people on the basis of a spiritual, moral and tolerant culture in the educational process // *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*. – 2021. – Т. 1. – №. 2. – С. 63-68.
6. Ortiqovich K. Y., Ulugbekovna R. S., Ashiraliyeva T. S. Socio-philosophical Foundations OF Developing A Culture OF Interethnic Tolerance // *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*. – Т. 14. – №. 1. – С. 27-31.
7. Ortiqovich X. Y. et al. Analysis of the relationship between intercultural dialogue and linguistic cultural diversity in the era of globalization // *Образование наука и инновационные идеи в мире*. – 2026. – Т. 87. – №. 1. – С. 215-221.
8. Ortiqovich X. Y. Globallashuv davrida barqaror taraqqiyotni ta'minlashda bag'rikenglikning o'rni // *Science and innovation*. – 2024. – Т. 3. – №. Special Issue 19. – С. 724-726.
9. Xoliqov Y. Globalashuv jarayonida yoshlar estetik madaniyatini rivojlantirishda manaviy omilning roli // «*ACTA NUUZ*». – 2025. – Т. 1. – №. 1.12. 1. – С. 204-206.
10. Xoliqov Y. Millatlararo madaniyat va bag'rikenglik-jamiyat taraqqiyotining asosidir // *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit*. – 2026. – С. 209-212.
11. Xoliqov Y. O. Millatlararo bag'rikenglik madaniyati insonparvarlik va tinchlikning asosiy tamoyili sifatida // *Eurasian journal of academic research*. – 2021. – С. 420-425.
12. Xoliqov Y. O. Yangi O'zbekistonda bag'rikenglikni rivojlantirishda millatlararo aloqalarning mohiyati // *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. – 2022. – Т. 2. – №. Special Issue 23. – С. 764-774.

13. Xoliqov Y. The role of ethics and education in the development of tolerance relations between Uzbekistan and the nation in the process of development //International Conference on Problems of Improving Education and Science. – 2022. – Т. 1. – №. 02.

14. Xoliqov Y. yangi O‘zbekistonda millatlararo madaniyatni yuksaltirish strategiyasi //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2025. – Т. 5. – №. 12. – С. 117-121.

15. Холиқов Ю. О. Бағрикенглик маданиятнинг моҳияти ва унинг ахлоқий асослари //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 17-21.